

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA TEXNOLOGIYA FANINI O`QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARS ISHLANMALARINING AHAMIYATI

Eshniyozov Olim

SHarof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti dotsenti

Toshniyozova Fotima

Pedagogika ta`limi fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`rta maktabning asosiy va ajralmas bo`g`ini hisoblangan boshlang`ich sinf o`quvchilariga texnologiya fanini o`qitishda ped-texnologiyalar asosida tayyorlangan dars ishlanmalarining ahamiyati, texnologiya fanining mazmuni va mohiyatini innovatsion ta`lim texnologiyalari orqali umumta`lim maktablarida texnologiya ta`limi fanini o`qitish samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan. Shuningdek, zamonaviy talablar asosida mashg`ulotlarni tashkil etish metodikasi keltirilgan.

Kalit so`zlar: Boshlang`ich ta`lim, texnologiya, texnologiya darslarida muammoli vaziyatlar, interaktiv usullar, suhbat ,aqliy hujum, klaster metodi, an`anaviy va no`ananaviy o`qitish metodlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение разработок уроков, подготовленных на основе педтехнологий в обучении младших школьников технике, являющихся основным и неотъемлемым звеном старшей школы, направленных на повышение эффективности преподавания предмета технологического образования в общеобразовательных школах через инновационные образовательные технологии содержания и сущности технологической науки. Также приведена методика организации обучения на основе современных требований.

Ключевые слова: Начальное образование, технология, проблемные ситуации на уроках технологии, применение интерактивных методов, беседа, мозговой штурм, применение кластерных методов, традиционные и нетрадиционные методы обучения.

Annotation: in this article, the importance of lesson developments prepared on the basis of ped-technologies in teaching technology to primary school students, which is considered the main and integral link of high school, is aimed at improving the effectiveness of teaching technology education in public schools through innovative educational technologies. A methodology for organizing training on the basis of modern requirements is also presented.

Key words: problem situations in elementary education, technology, technology classes, application of interactive methods, conversation, mental attack, application of cluster methods, traditional and non-traditional teaching methods.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Mazkur fan orqali bo'lajak mutaxassis o'qituvchilar fanining asosiy ilmiy – nazariy va amaliy natijalariga asoslangan holda o'quvchilarga mehnatsevarlik, intizom, masuliyat, burch hissi, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish malakasiga ega bo'ladilar. Ma'lumki, oxirgi 3-4 yillarda jahon andozalari talabiga javob beradigan malakali milliy kadrlar tayyorlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mamlakatimizda ma'lum bir ishlar amalga oshirilmoqda, chunki yoshlarga berilayotgan ta'lim sifatini oshirish davlat ahamiyatiga ega masalalardan biriga aylanib qolmoqda. Shuning uchun ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ma'lum bir qonunlar, qarorlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar ishlab chiqilib amalga qo'llanilmoqda. Misol sifatida 2020-yil sentyabrda yangi tahrirda ishlab chiqilgan „Ta'lim to'g'risida“gi qonunni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi „Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida“ gi PQ 4884-sonli qarorlarini va boshqa hujjatlarni olishimiz mumkin. Ta'lim sifatini oshirish masalasi dolzarb bo'lganligi uchun ham 2023-yil Prezidentimiz taklifiga asosan „Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili“ deb e'lon qilindi.

Albatta, ta'lim sifatini oshirish maktabdan boshlanishi kerak va aynan boshlang'ich sinflardan boshlanishi kerak. Maktabda o'qitiladigan barcha fanlar singari texnologiya fanining ham roli ta'lim sifatini oshirishda juda katta. Shuning uchun texnologiya fanini sifatli o'qitishga davlatimizda katta e'tibor berilmoqda. Bunga quyidagi hujjatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida texnologiya fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, Prezident Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida texnologiya fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Boshlang'ich texnologiya ta'limida o'quvchilarni ruhiy tayyorlash - O'quvchilarni mehnat qilishga ruhiy tayyorlash o'quvchilarning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy xususiyatlarni tarkib toptirish, o'quvchilarning mehnat malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir. Boshlang'ich texnologiya ta'limida o'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash. O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash oddiy asbob va moslamalardan foydalanish, materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olish xislatlarini tarkib toptirishdan iborat. Texnologiya ta'limining tashkil etilishi bunda texnologiya ta'limi dasturida o'quvchilar texnologiya darslarida egallashi lozim bo'lgan ilmiy-texnik bilimlarining, mehnat malaka va ko'nikmalari hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi. Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga texnologiya ta'limi berish, ularni tarbiyalash sohasida qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z ifodasini topgan. Texnologiya ta'limi dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma'lum o'zgarishlar kiritishi mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Texnologiya darslarida “master-klass”larni tashkil qilish, dars jarayoniga ko'p yillik tajribaga ega, hunarmandlar, duradgor, tikuvchi va boshqa kasb egalarini taklif qilish. Ularning hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashish. O'quvchilarning qiziqqan savollariga javob olishi va ular bilan birgalikda ma'lum bir mehnat faoliyatini birgalikda bajarishi ular uchun unutilmas jarayon va tajriba bo'ladi. Natijada o'quvchilar texnologiya darslarida ulardan o'rgangan ish tajribalarini yodga oladi va amaliy darslarda o'zlarini sinab ko'rishadi. Texnologiya dars jarayonida AKTdan foydalanish- hozirda hech bir sohani AKTsiz tasavvur qilishni imkoni yo'q. Texnologiya darslari amaliy mehnat jarayonlariga asoslangan bo'lsada, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dars jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli qog'ozdan har xil gullar, maketlar, tabriknomalar, turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, parranda va jonivorlar shaklini yasash, gazlamalardan ajoyib buyumlar tayyorlashni o'rganib boradilar. Dars jarayonida faqatgina bitta usuldan foydalanib mehnat jarayonlarini tashkil qilish o'quvchilar uchun ozroq zerikarli bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi yangi dars yuzasidan izlanishi, yangi materiallarni yig'ishi kerak bo'ladi. Hozirda inson mehnati tufayli “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi ko'plab go'zalliklarni yaratmoqda. Bunday qo'l ishlarini topish va ularni o'quvchilar bilan birgalikda bahramand bo'lishi uchun ko'pgina internet saytlari mavjud. Oddiygina qog'ozdan gul yasash jarayonini mingdan ortiq turi mavjud. Shunga o'xshash eng yaxshi namunalarni izlab topish va ularni o'quvchilarga ko'rsatish natijasida darsda yanada ko'proq o'quvchilarni qiziqishlarini oshishiga

erishish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlanishiga ya’ni faqat ko‘rgan narsasini yasashni emas, balki o‘zlari mustaqil ravishda ijod qilishiga turtki bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O‘quvchilarning to‘g‘ri yo‘naltirilgan mehnat jarayonlari diqqatni bir yerga to‘plashni, serharakatlilikni, qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramasdan, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olish odatlarini tarbiyalashga, o‘quvchilarning ijodiy tashabbusini o‘stirishga imkon beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni” Toshkent shahri 2020-yil 23-sentabr O‘RQ 637.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6-noyabrdagi „Ta’lim -tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ 4884- sonli qarori. Toshkent. 6-noyabr 2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Toshkent. 19-aprel 2019 yil
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
5. 1-4 sinf o‘quv uslubiy tavsiya kitobi. “O‘qituvchi” nashriyoti 2017 yil.
6. Xamrakul Sanakulov, Dilfuza Abdiyeva “Texnologiya “3-sinf [Matn] : darslik
7. Ashurov N.R, Umbarova N.X. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida qog‘oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. “Monografiya” Denov -2022, toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.